



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

## **Professional Ta'lif Muassasalarida Chet Tillarini O'qitish Jarayonida Pedagog Kadrlarga Qo'yiladigan Talablar**

**Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna<sup>1</sup>, Begmatova Dilnoza Muxtarovna<sup>2</sup>**

*Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti, Samarqand davlat chet tillar instituti<sup>1</sup>*

*SamDChTI Pedagogika Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent<sup>2</sup>*

### **INFO:**

Qabul qilindi: 05.02.2022  
Ko'rib chiqildi: 07.02.2022  
Chop etildi: 07.02.2022

*Kalit so'zlar:* kommunikativ-axborot, kommunikativ madaniyat, psixologik iqlim, mashq texnologiyasi, madaniyatlararo muloqot

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi professional ta'lif jarayoni, professional ta'lif tizimiga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish, pedagog mutaxassislarga qo'yiladigan asosiy talablar, o'qituvchining kommunikativ madaniyati, pedagogning innovatsion faoliyati haqida so'z yuritilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](#)  
tomonidan himoyalangan

## Kirish

Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqtি-soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon mакtab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", degan gaplari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa tavsiyanomalariga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra professional ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari ko'rgazmali qurollar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Bunday yaratib berilayotgan shart sharoitlardan ruhlangan o'quvchilar orasida chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

Chet tili fani to'rt aspekt (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ga bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

## Adabiyotlar sharxi:

Professional ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Xususan, chet tilini o'rgatish jarayonida bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspektida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga riosa qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarali usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video rolklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televidiniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;
- CD pleylardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

## Tadqiqot metodologiyasi:

Chet tillarini o'qitish jarayonida pedagog mutaxassislarga qo'yiladigan asosiy talab o'quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Buning uchun

kishilarni samarali muloqot qilishiga o'rgatuvchi o'quv qo'llanmalar va chet tildagi to'rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarurdir.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati bu - uning o'quv-tarbiya jarayoni subektlari bilan professional pedagogik muloqotidir. Kommunikativ madaniyatning zaruriy darajasi sifatida shuni belgilash mumkinki, bunda o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari va hamkasblarini ijobiy qabul qila oladi hamda ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishishni so'zsiz ta'minlay oladi. Kommunikativ madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni egallagan o'qituvchi ta'lim jarayoni barcha subektlari bilan o'zaro munosabatlarda ijobiy psixologik iqlimni yarata oladi, ta'limni modernizatsiyalashning muhim prinsiplari bo'l mish-insonparvarlik va demokratlashtirishni amalga oshiradi. Shaxsiy ahamiyati shundaki, kommunikativ madaniyatga ega bo'lgan pedagogning o'ziga ishonchi yuqori bo'ladi, o'quvchi bilan qurilgan muloqotdan zavqlanadi, tanlangan ish faoliyatida o'zini erkin his etadi.

### Natijalar:

O'qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kommunikativ ko'nikmalar.
2. Pedagogning muloqotga kirishuvchanligi.
3. Pedagogning muloqot madaniyati.
4. Pedagogik muloqot metodlari.

O'qituvchi faqat chet tilida o'z kommunikativ mahoratini emas, balki o'quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O'qituvchi o'quvchi-yoshlar psixologiyasini yaxshi bilishi, ularning ijtimoiy qarashlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini puxta bilishi talab etiladi.

Pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko'ra muvaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo'llay olishiga bog'liqdir. Pedagog dars mobaynida nafaqat o'zi ishlashi balki o'quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqtira olishi, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina, darsni to'g'ri tashkil etish, ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin. Pedagogning innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni ham qamrab oladi. Yuqorida barcha fikr va mulohazalardan ko'rinish turibdiki, bunday ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog chet til o'qitishda keyingi qadam, ya'ni "mashq texnologiyasi"ga murojaat etishi lozim va uni amalda qo'llash bilim olishdagi ko'nikma va malaka sari yetaklaydi.

### Xulosa va munozara:

Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasida malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko'rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari izchillik prinsipi ta'minlansa, ta'limning sisati va samaradorligi oshib boraveradi. O'qituvchi muallimning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat muloqot qila olish ko'nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.

2. Hoshimov O’H, Yokubov I.YA. Ingliz tili o’qitish metodikasi. - Toshkent 2003.
3. Otaboyeva M. P. Chet tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi 2017. — № 4.2 (138.2).
4. Tokhirov A.I. “WRITING CONTROL PROGRAMS FOR COMPUTER NUMERAL CONTROL MACHINES” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 5(86).  
URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11810>  
DOI - 10.32743/UniTech.2021.86.5.11810
5. Tokhirov A.I. “APPLICATION PROCEDURE CAD/CAM/CAE - SYSTEMS IN SCIENTIFIC RESEARCH” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 6(87).  
URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11836>  
DOI - 10.32743/UniTech.2021.87.6.11836
6. Tokhirov A.I. “USING THE GRAPHICAL EDITOR "КОМПАС 3D" in teaching computer engineering graphics” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 7(88).  
URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12076>  
DOI: 10.32743/UniTech.2021.78.8-3.12076
7. Tokhirov A.I., Marasulov I.R. “CONTROL MODELS AND INFORMATION SYSTEM OF COTTON STORAGE IN THE CLASTER SYSTEM” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 11(92).  
URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12486>
8. Azamjon Ibrohim ugli Tokhirov, “TECHNOLOGICAL PROCESS DEVELOPMENT USING CAD-CAM PROGRAMS”, "Science and Education" Scientific Journal, June 2021  
URL: <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1561>
9. Toxirov A’zamjon Ibrohim o’g’li, “METHODOLOGY OF TEACHING THREE-DIMEN MODELING USING THE PROGRAM “KOMPAS-3D””, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center,  
URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.4718298>
10. Marasulov Islombek Ravshanbek o’g’li, Tohirov A’zamjon Ibrohim o’g’li, “THE IMPORTANCE OF AUTOMATION OF COTTON RECEIVING SYSTEM”, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center,  
URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.4898919>
11. Toxirov A’zamjon Ibrohim o’g’li, “QUALITY IN MODERN MANUFACTURING ENTERPRISES THE ROLE OF ROBOTOTECHNICS AND AUTOMATED ELECTRICAL INSTRUMENTS IN PRODUCTION”, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center,  
URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.4968770>
12. Islombok Marasulov Ravshanbek Ogli, & Toxirov Azamjon Ibrohim Ogli. (2021). A ROLE OF MECHANICAL ENGINEERING IN MECHATRONICS.  
*JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 824–828.  
Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1690>